

**7 YOSHGACHA BO'LGAN QIZ BOLALAR TARBIYASINING
MILLIY POYDEVORIDA ONANING ROLI
(O'ZBEK MINTALITETI MISOLIDA)**

TMCI instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrası
v.b.dotsenti (PhD)
Xujamatova Xusnidaxon Mansurovna
Qiz bola tarbiyasi-millat tarbiyasidir-
Xalq donishmandligi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tadqiqot yosh avlodimiz bo'lgan qiz bolalar tarbiyasida onaning rolini ochib beradi. Mamlakatimizda istiqomat qiluvchi ko'plab xalqlarning madaniyati ayollarning oilaviy munosabatlarning asosiy tartibga soluvchisi sifatidagi alohida mavqeini ko'rsatadi.

Ushbu maqolada milliy tarbiyamizning mohiyati, bola tarbiyasida oilaning ahamiyati, qizbolani tarbiyasida ota-onaning roli, milliy qadriyatlar, urf-odatlarimiz haqida so'z yuritilgan. Bugungi kunda turli xil ijtimoiy rollarni bajarib, xotin-qizlar jamiyatimiz kelajagi uchun katta mas'uliyat yuklaydi.

Maqolada o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi, oilada bola tarbiyasi, bola tarbiyasida ota-ona, mahalla, maktabgacha talim tashkiloti hamkorligi, ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, farzand tarbiyasida onaning o'rnini haqida so'z yuritilgan. Hamda ulug' bobokalonlarimiz farzand tarbiyasidagi qarashlariga ham to'g'ri o'tilgan.

Maqolada milliy tarbiya, milliy qadriyatlar haqida tushunchalar berilgan. Milliy tarbiyani bolaning yoshligidanoq shakllantirish haqida so'z yuritilgan. Qiz bola tarbiyasi qanday nozikligi ekani haqida so'z yuritilgan. Oilada qizlar tarbiyasiga e'tibor berish zarur. Qizlarning kelajakda o'zini shaxs sifatida rivojlanishida onalarning roli muhim ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'z: *ota-ona, bola, ta'lim-tarbiya, bilim, milliylik, qadriyat, an'ana, urf-odat, xulq-atvor, mehr-muhabbat, odob-ahloq, xotin-qizlarning o'rnini, yosh avlod, milliy madaniyat.*

**РОЛЬ МАТЕРИ В НАЦИОНАЛЬНОМ ОСНОВАНИИ
ВОСПИТАНИЯ ДЕВОЧЕК ДО 7 ЛЕТ
(НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОСТИ)**

Институт ТМСИ

Кафедра педагогики и психологии

И.о. доцента (к.п.н.)

Хужаматова Хуснидахон Мансуровна

xujamatovax@gmail.com

Тел: +998911422005

Воспитание девочки – это воспитание нации-

Народная мудрость

Аннотация: В данном научном исследовании раскрывается роль матери в воспитании нашего подрастающего поколения девочек. Культура многих народов, проживающих в нашей стране, показывает особое положение женщины как главного регулятора семейных отношений.

В данной статье рассматривается суть нашего национального воспитания, значение семьи в воспитании ребенка, роль родителей в воспитании девочки, наши национальные ценности и традиции. Сегодня женщины, выполняя различные социальные роли, несут большую ответственность за будущее нашего общества.

В статье рассматриваются вопросы воспитания подрастающего поколения, воспитания детей в семье, сотрудничества родителей, двора, дошкольных образовательных организаций в воспитании детей, целей и задач воспитания, роли матерей в воспитании детей. Также затрагиваются взгляды наших прадедов на воспитание детей.

В статье приводятся понятия о национальном воспитании и национальных ценностях. Рассказывается о формировании национального воспитания с малых лет. Рассказывается о тонкостях воспитания девочек. Необходимо уделять внимание воспитанию девочек в семье. Подчеркивается, что важна роль матерей в дальнейшем развитии девочек как личностей.

Ключевые слова: родители, дети, образование, знания, национальность, ценности, традиции, обычаи, поведение, любовь, этикет, роль женщины, молодое поколение, национальная культура.

**THE ROLE OF THE MOTHER IN THE NATIONAL FOUNDATION
OF THE EDUCATION OF GIRLS UP TO 7 YEARS OF AGE
(ON THE EXAMPLE OF THE UZBEKISTAN NATIONALITY)**

TMCI Institute

Department of Pedagogy and Psychology

Acting Associate Professor (PhD)

Khujamatova Khusnidaxon Mansurovna

xujamatovax@gmail.com

[Tel: +998911422005](tel:+998911422005)

The education of a girl is the education of a nation-

Folk wisdom

Annotation: This scientific study reveals the role of the mother in the education of our younger generation of girls. The culture of many peoples living in our country shows the special position of women as the main regulators of family relations.

This article discusses the essence of our national education, the importance of the family in raising a child, the role of parents in raising a girl, our national values, and traditions. Today, women, fulfilling various social roles, bear great responsibility for the future of our society.

The article discusses the upbringing of the growing younger generation, raising children in the family, the cooperation of parents, the neighborhood, and preschool educational organizations in raising children, the goals and tasks of education, and the role of mothers in raising children. It also touches on the views of our great-grandfathers on raising children.

The article provides concepts about national upbringing and national values. It talks about the formation of national upbringing from a young age. It talks about the subtleties of raising girls. It is necessary to pay attention to the upbringing of girls in the family. It is emphasized that the role of mothers in the future development of girls as individuals is important.

Keywords: parents, children, education, knowledge, nationality, values, traditions, customs, behavior, love, etiquette, the role of women, young generation, national culture.

KIRISH

Milliy tarbiya- tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, uning milliy qadriyatlari asosida olib boriluvchi maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyat, umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror sakli, xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirishdan iboratdir. Mustaqillik yillarini boshlarida bizning buyuk ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar davomida yaratilib kelingan be‘baho milliy va ma’naviy me‘roslarimizni tiklash davlat siyosatida ko‘tarilgan muhim vazifa bo‘lib qolgan. Milliy tarbiyani bolaning yoshligidanoq shakllantirish, unga milliy qadriyatlarimizni, an‘analarimizni singdirish zarur.

Milliy qadriyatlarni shakllantirish obyekt va subyekt sifatida tushunish kerak. Qadriyatlar - inson uchun ahamiyatli bo‘lgan millat manfaatlari yo‘lida xizmat qiladigan erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqat, ma’rifat, go‘zallik, yaxshilik, halollik, burchga sodiqlik singari fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Milliy qadriyatlar ma’lum bir millat, xalq va elatlarning o‘z tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy va madaniy (ma’naviy) boyliklari yig‘indisidan iboratdir. Qadriyatlar turli-tuman bo‘lib, bular ichida “eng oliy qadriyat – inson” hisoblanib, qolgan barcha qadriyatlar unga xizmat qiladi. Inson qadriyatining ma’naviy, tarixiy hamda ta’limiy jihatlari o‘ziga xos yangicha fikrlash va yondoshishlarga asoslanadi. Tarbiya - arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, parvarish qilmoq, ta’lim bermoq, o‘rganish, odob o‘rgatish, mehribonlik ko‘rsatish, himoya qilish singari ma’nolarni anglatadi.

Ta’lim va tarbiya bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Inson ilmi bo‘lishni istasa u eng avvalo tarbiyalanishi kerak. Tarbiyali inson mukammal ilm sohibi bo‘la oladi. Bolaga tarbiya berish avvalo oiladan boshlanadi. Biz oilani “kichik vatan” deb ataymiz. Aynan shu Vatan bola uchun dastlabki tarbiya maktabi bo‘ladi. Qaysidir ma’noda ota-ona farzandining birinchi o‘qituvchisi hisoblanadi. Shuning uchun ota-onaning o‘zi ham yuksak axloqiy sifatlarga ega bolmog‘i kerak. Bolaga o‘zi yaxshi fazilatlar bilan o‘rnak bo‘la oladigan ota-onaning farzandi kelajakda go‘zal xulqli, yuksak ilmi, xalqqa foydasi tegadigan barkamol shaxs bo‘ladi¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish buyicha kushimcha choratadbirlar tugrisida” 2019 yil 3 maydagi PK-4307-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida 2019 yil 31 dekabrda Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi¹ qabul qilindi: Konsepsiyada “Qiz bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat, mehnatsevarlik, jonkuyarlik, oilaparvarlik, ibo, xayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, raxmdillik, kamtarlik, ziyraklik, mehmondo‘stlik, bolajonlik,

¹ Bola ta’lim-tarbiyasida ota-onaning tutgan o‘rni. science and innovation international scientific journal volume 1 issue 7 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337. 67 p

murosallilik, orastalik, saranjomlik, xushmuomalalik, pazandalik kabi malakalarni shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish” vazifalari belgilangan²

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019 - yil 22 - aprelda imzolangan PQ 4296 - sonli qaroriga asosan , qizlar uchun nikoh yoshi 17 dan 18 yoshga o‘zgartilganligi va Oila kodeksining 15 - moddasi birinchi qismi bilan nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun 18 yosh etib belgilanganligi, o‘zbekiston Respublikasi “Xotin - qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risidagi ” Qonuni hamda o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senatining “2030 - yilga qadar o‘zbekiston Respublikasida gendr tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida” Qarori jamiyatdagi majud barcha sohalarda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan xotin - qizlar huquqini qonuniy jihatdan himoyalashga qaratilgan islohotlarning yana bir isbotidir. Oilaning tibbiy, huquqiy, iqtisodiy savodxonligini oshirish masalalari ilgari surilayotgan bir davrda, diniy savodxonlikka ham ega bo‘lishlikni davrning o‘zi taqozo qilyapti. Zero, islom dini yaxshilik, ezgulikni ulug‘lovchi din bo‘lishi bilan birga unda oila mustahkamligiga ham alohida urg‘u berilgan. Bunda **“Qur’oni Karim”** va **“Hadislar”** asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Psixolog olimlar oilani kichik bir ijtimoiy guruh sifatida ta’riflaydilar. Oilani tashkil etuvchi bu shaxslar nikoh orqali hamda yaqin urug‘chilik rishtalari bilan bir-biriga bog‘langan bo‘lib, ular o‘rtasidagi munosabatlarga xos bo‘lgan muhim jihatlar-o‘zaro mehr-muhabbat, g‘amho‘rlik, ma’sulyatlilik va albatta, xayot, turmush tarzidagi umumiylikdir³ “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish xuquqiga ega” - deb belgilab qo‘yilgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida. Dunyodagi barcha inson borki o‘zidan yaxshi nom qoldirish uchun farzandlariga yaxshi tarbiya berishni o‘ylaydi. Kelgusida farzandlari el-yurt xizmatiga yaraydigan bo‘lib yetishishini istaydi. Ayniqsa, qiz farzandlar odobi, axloqi uni boshqalarda ajralib turishi kerak.

Har bir farzand uchun ota-onaning e’tiborliligi, mehribonliligi zarur. Farzand tarbiyasida tasirchan kuch-qudrat bu – onadir. Ayniqsa, qiz farzand uchun onaning roli nihoyatda katta. Ona qiz farzand uchun misoli oyna kabi. Ota-ona bola tarbiyasida juda sinchkovli bilan e’tibor berishi lozim. Agar ota-ona boladagi qobiliyat, istedodni ertaroq bilib unga shart- sharoit yaratib bersa, bola shaxsining kamol topishiga katta yo‘l ochiladi. Bolani tarbiyalashda unga faqatgina ish

²VOLUME 1 | ISSUE 8 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423 718 w

September 2021 www.oriens.uz

³Maktabgacha pedagogika. Toshkent.2017 yil. 326 bet.

buyurib yoki u bilan savol-javob qilibgina tarbiya bersa bo'ladi deb o'ylashlari kerak emas. Bolani ikki yo'l bilan tarbiyalash lozim mehr va shirin so'z.

Qiz bolaning tarbiyasi o'ta nozik masala. Xalqimizda "Onasini ko'r-u qizini ol" degan naql ham bejiz aytilmagan. Qiz bola onasining yurish turishi munosabati, hunarmandligidan dars oladi. Qiz bolani yoshlikdan ozodalikka, shirinso'zlikka, o'zaro hurmat qilishga o'rgatish kerak. qizlarni – bo'lajak onalarni jismonan sog'lom va intellektual barkamol etib shakllantirish, ularning akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida majburiy ta'lim olishini ta'minlash, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallash, ularda mustahkam hayotiy pozitsiya va mustaqil fikrlashni shakllantirish, ularga munosib hayot kechirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Qiz bola sha'niga bir dog' tushurmaslik uchun harakat qilish kerak. Bir dog' tushsa u uchmas bo'ladi. Ohirgi paytlarda qiz bola tarbiyasi o'ta og'irlashib ketmoqda. Bu borada ota-onalardan ma'suliyatli bo'lishlari talab qilinadi. Qiz bolaning nomiga tushgan dog' ya'ni isnodning ketishi qiyindir. Albatta bola tarbiyasi o'ta murakkab va ma'suliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan baxobar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.

TADQIQOT MUAMMOSINING DOLZARBLIGI so'nggi paytlarda paydo bo'lganligi bilan bog'liq o'n yilliklar davomida milliy madaniyat darajasining sezilarli yuksalishi qayd etildi. Ushbu tendentsiyaning keyingi rivojlanishi ko'p jihatdan yosh avlodni tarbiyalash bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi, shu jumladan xalqlar orasida boshqa madaniyatlar bilan o'zaro munosabat, shuningdek, etnoijtimoiy yo'nalishlarning shakllanish jarayoni. Bu jarayonlarning tugallanishi, o'z navbatida, mintaqadagi ayollarning rolga bevosita ta'sir qiladi⁴.

Ushbu maqolaning maqsadi ayollarining yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini o'rganishdir, namoyon bo'lgan eng muhim xususiyatlarini aniqlash, ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish uchun bugungi kunda mavjud bo'lgan asosiy imkoniyatlarni o'rganish, bolalar, o'smirlar va yoshlar, uni takomillashtirishda, oilada ayollarning rolini hisobga olish ahamiyati berilgan. Maqolaning ilmiy yangiligi eng muhimini aniqlash orqali yosh avlodni tarbiyalashda hamda qiz bola tarbiyasida onaning rolining xususiyatlari va pedagogik bilimlarni kengaytirishda maqolaning ahamiyati ko'rsatilgan. Insoniyat jamiyati taraqqiyotining hozirgi

⁴ISSN 1991-5497. мир науки, культуры, образования. № 5 (90) 2021. 141 s

bosqichida yosh avlodni tarbiyalashda ayollarning roli va amaliy ahamiyati ushbu masala bo'yicha keyingi tadqiqot ishlarining yo'nalishini belgilashda ko'rinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek xalq pedagogikasida bolalarda ijobiy fazilatlarni, tarbiyani shakllantirish uchun birinchi navbatda oila a'zolari ota-ona, aka-uka, opa-singil va oilada kattalarga bo'lgan mehr-muhabbat hissini tarbiyalash zarurligiga amal qilingani ko'rinadi.

Oilada bolalarning kattalarga bo'lgan mehribonligi tarbiya natijasidagina tarkib topadigan ma'naviy fazilat ekanligi ta'kidlanadi. Tarbiyani insonga yetkazishda otaonaning o'rni beqiyosligini Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) ta'kidlaydilar. Payg'ambar alayhissalom: "Jannat onalar oyog'i ostidadir" deb marhamat qildilar. Kelgusida qizlar bo'lajak ona, ardoqli uy bekasi bo'ladilar. Biz qizlarimizga hayotning past-balandini, turmush qiyinchiligini yengib o'tishlarini uqtirib o'tishimiz shart. Har bir ona turmushga chiqayotgan qiziga u kelin bo'lib borayotgan xonadon aziz va qadrliligi, qiz bola kelin bo'lib tushgan xonadoniga toshdek bo'lishini uqtirishi lozimdir.

Abu Hurayra(roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: "Nabiy (sollallohu alayhi vasallam): "Har bir tug'ilgan bola faqat fitrat (sof tabiat) bilan tug'iladi. Bas, ota-onasiuni yahudiy yoki nasroniy yoki majusiy qiladi...". Bu hadisi sharifdan irsiyat, ya'ni biologik omil insonni shakllanishida asosiy o'rin tutadi degan fikrni ilgari suruvchi G'arb faylasuf va oqimlarining fikrlari asossiz ekanini va tarbiyaning muhimligini bilib olamiz.

Jaloliddin Davoniy ota-onaning bolani tarbiyalashdagi ahamiyatiga keng to'xtalgandi. Uning fikricha oila tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli, teng ishtirok etishi bolaning yaxshi xulq odob qoidalarini muayyan bir kasbni egallashiga ko'maklashishi ilm fan va kasb hunar egallashining moddiy asosi bo'lmishoziq ovqat, kiyim kechak, kerakli buyum va jixozlarni yetkazib berish uchun jozibalik ko'rsatishi kerak.

Jaloliddin Davoniy "Bolaning tarbiya olishi, odob-axloqli bo'lishi uning keyingi tarbiyasiga bog'liq. Chunki hayotda har kuni bola ko'radigan, muloqotda bo'ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon tomondan ta'sir etadi. Bolada har kuni insoniy xislatlar: yurish-turish qoidalari, xushmuomalalik, otaona va boshqa katta yoshlilarni hurmat qilish, to'g'rilik va rostgo'ylikni o'rganish, shirinsuxanlik, kamtarlik, so'zlashuv odobiga rioya qilish kundalik turmushda o'rganiladi", deydi.

O'rta Osiyolik mutafakkirlardan Forobiy va Abu Ali ibn Sino insontarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga e'tibor berganlar. Sharq mutafakkirlarining merosida ta'lim-tarbiya masalalari muhim o'rin egallaydi.

Oilada farzand tarbiyasiga e'tibor katta beriladi. Abu Nasr Farobiyning fikriga ko'ra bolani tarbiyasi bir maqsadga qaratilgan holda olib borilmog'i kerak. Aqliy va axloqiy tarbiya birligidan iborat bo'lishi lozim deya ta'kidlab o'tgan.

Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: Munosib inson bo'lish uchun insonda ikki xil imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. "Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir..." deydi.

Abu Ali ibn Sino oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: "Bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ng uni yaxshilab tarbiya qilishikerak... Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo'ladi" degan fikrni ilgari suradi⁵.

Shaxsning kamol topishi murakkab va uzluksiz jarayondir. Uning tarbiyasi ota-onaga, mahalla ko'yga, qo'ni-qo'shniga, do'st-yorlarga ommaviy ahborot vositalariga, maktabiga bog'liq. Rizouddin ibn Faxriddinning "Oila" risolasida bolaga qo'pollik bilan emas, balki sabr-toqat, mehribonlik, matonatli bo'lishi kerak degan fikrni ilgari surgan. (Rizouddin ibn Faxriddinnig "Oila" risolasidan) Bola tarbiyani birinchi navbatda oiladan o'rganadi. Bolaga yaxshi ta'lim- tarbiya berish uning kelajagi asosi hisoblanadi. Oilada bola tarbiyasining asosi ona hisoblanadi. Oilada bola tarbiyasiniyangi o'sib chiqayotgan niholga qiyoslanadi. Chunki, niholni boshida parvarishlab to'g'ri o'stirsa, farzandni ham shu nihol kabi parvarishlashi lozim.

Ingliz olimi Herbert Spencer "Tarbiya – bolaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta'minlashning amaliy jarayonlarini o'z ichiga olishi kerak"-deb yozadi. Abu Rayhon Beruniy ta'lim va tarbiyaning maqsadi, uning vazifasi, mavqei inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagifikrlari chin ma'noda insonparvarlik zahirida yaratilgan. Bilim tarbiyani tabiatga uyg'unligi mutaffakkirning barcha asarlarida kuzatishimiz mumkin. Mutaffakkir insonni tabiatning bir qismi deb hisoblaydi.

Mashhur publitsist va adabiyotshunos V. Belinskiy shunday deb yozgan edi: "o'g'il yoki qizni tarbiyalashda onaning ishtiroki nafaqat muhim, balki zarur: bolaning kelajakdagi xarakteri ko'p jihatdan onaning ta'siriga bog'liq. Uning qo'lida - bolaning uyg'onish fikrlarini shakllanishida yo'nalish berishi, onaning bunda mas'uliyati katta, burchi esa muqaddasdir"⁶.

⁵.Farzand tarbiyasida ota-onaning roli."Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF) February 2023 / Volume 4 Issue 2 www.openscience.uz / ISSN 2181-0842 979

⁶Psixolog - onaning o'g'li va qizini tarbiyalashdagi o'rne haqida. Oila bo'yicha mutaxassis. GKU SO"Voroshilovskiy TsSON". Svetlana Andreevna Chernousko. 2021.

Irina Lykova amin. "Inson hayotida onaning o'rni haqida gapiradigan bo'lsak, bu har doim qadriyatlar: sevgi, do'stlik, oila, mehnat, mehnat, o'zi, hayot va salomatlikdir".

Oila tarbiyasi bo'yicha Abu Ali Ibn Sino "Tadbir al-manozil" asarini yozgan. Unda olim ota-onaning bolani tarbiyalashdagi vazifalarini yoritgan. Ushbu asarda oilada ota-onaning vazifasi va burchlariga oilada munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa, ota-onaning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatish borasida muhim fikr yuritgan.⁷

Farzandning tarbiyalanishida ota-onalar diniy ta'limotlarga ham alohida ahamiyat berishlari lozim. Diniy tarbiyada bola Vatanga muhabbat bilan ajdodlarga sadoqat ruhida tarbiyalanadi. Bola tarbiyalashda buyuk mutafakkir bobomiz Mirzo Ulugbek shunday deganlar: "Oilada ota-onalar ayniqsa o'qimishli ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim".

Shunday ekan, har bir ota-ona farzandining tarbiyasiga ko'proq e'tibor berishi, ularga alohida vaqt ajratib, odob-axloqdan dars berishi, yomonlarga yaqin yo'latmasligi lozim ekan. Har bir ota-ona farzand tarbiyasida albatta ota-bobolarning fikrlariga e'tiborli bo'lishlari kerak. Ana shunda ular ota-onasi va el-yurtiga xizmat qiladigan, ularga ikki dunyoda obro' olib keladigan yuzlarini yorug' va boshlarini yuqori qiladigan farzand bo'lib ulg'ayishadi. Ota-ona bolaning vaqtini to'pa qamrab oladigan zarur va manfaatli mashg'ulotlarni tayyorlashi kerak va ana o'sha mashg'ulotlar bolaning ongini rivojlantiruvchi bo'lishi shart⁸

Tarbiya haqida taniqli pedagog A.S.Makarenko "Tarbiyaviy ta'sirning g'oyat qudratli ta'sir ko'rsata olishiga ishonchim komil. Agar odam yomon tarbiyalangan bo'lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo'lsa buning uchun u tarbiyadan, o'z bolaligidan karzdordir"⁹deb ta'kidlab o'tgan. Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil

⁷ Oila pedagogikasi toshkent2007 8-b.

⁸ ["Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF) February 2023 / Volume 4 Issue 2 978-980 p].

⁹ A.S. Makarenko "Художественная литература о воспитании детей" Пед. Соч. М. 1986. Т.7.306бет

etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi". Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lish lozim deya ta'kidlab o'tadi.¹⁰

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda jamiyatimizda shakllanayotgan oilalalarda qizlar tarbiyasi va kamolotiga alohida e'tibor berilmoqda. Qiz farzand borliqni ota ruhiyatida ko'radi, qizlar uchun ota suyanuvchi tog', otasiz o'zini erkin hotirjam tutolmaydi. Hayotda o'rnini topishi ham qiyin bo'ladi. Shu sababdan qiz bolaning hayotida otaning roli katta va beqiyosdir. Shu bilan birgalikda uning ruhiy olamini ham to'ldiruvchi eng asosiy obraz ota hisoblanadi.

Shunday ekan, har bir ota-ona farzandining tarbiyasiga ko'proq e'tibor berishi, ularga alohida vaqt ajratib, odob-axloqdan dars berishi, yomonlarga yaqin yo'latmasligi lozim ekan. Ota-ona bolaning vaqtini to'pa qamrab oladigan zarur va manfaatli mashg'ulotlarni tayyorlashi kerak va ana o'sha mashg'ulotlar bolaning ongini rivojlantiruvchi bo'lishi shart¹¹.

Tadqiqot ishimning yana bir metodologik o'rganish qismida 7 yoshgacha bo'lgan qiz bola tarbiyasida onaning roliga o'yinlar ahamiyatini ham ko'rib chiqdik. Bunga misol tariqasida "Oila" o'yini oldik.

◆ **“Oila” o'yini:** Uy xo'jaligi, oila byudjeti, oilaviy munosabatlar, birgalikda dam olish haqida g'oyalarni shakllantirish, oila a'zolariga muhabbat, do'stona, g'amxo'rlik va ularning faoliyatiga qiziqishni rivojlantirish. Bu o'yinda qizlarni oilaga bo'lgan munosabatini yaxshilash, oila a'zolariga bo'lgan mehrni, e'tiborini kuchaytirish maqsadida bu o'yinni qo'llash mumkin.

Shunday qilib, 7 yoshgacha bo'lgan qiz bolaning yuksak tarbiyasida amaliy faoliyatda o'yinlardan foydalanib amaliy ish olib borish jarayonida qiz bolani tarbiyasida ona bilan qiz birgalikda yoki onani ko'magi asosida o'yinlar o'ynash qiz bolani tarbiyasig atasir etishini guvohi bo'ldik. Bunga misol qilib yuqoridagi "oila" o'yinini keltirdik.

Bolalar bog'chasiga borishning boshlanishi bilan bolaning hayoti o'zgaradi, u nafaqat oilada, balki birinchi bolalar guruhida boshqa bolalar bilan muloqot qilishni o'rganadi; “Bola nimaga jalb qilinganiga e'tibor bering: ba'zi bolalar rasm chizishni yaxshi ko'radilar, boshqalari esa raqsga yoki sportga ko'proq qiziqishadi. Bolaning bolalar bog'chasiga qanday moslashishini, u o'z xohishi bilan guruhda qolishi yoki boshqa bolalar bilan qanday muloqot qilishini ko'rib chiqing. Bolalarning tabiiy intilishlarini yoshligidan rag'batlantiring, shunda kelajakda ular

¹⁰ <https://religions.uz/uz/news/detail?id=12>

¹¹ "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF) February 2023 / Volume 4 Issue 2 978-980 p

to'liq rivojlanib, haqiqiy iste'dod egasi bo'lishlari mumkin», - deya sharhlaydi psixolog¹².

Biz tadqiqot mavzuyimiz doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida so'rovnoma, intervyu metodlaridan foydalandik.

Maktabgacha ta'lim tashkilotiga tashrif buyurgan *ota-onalar, tarbiyachilardan intervyu va so'rovnoma metodlarimizni qo'lladik*. Bu metodimizning natijasida qiz bolaning tarbiyasida otani ham, onani ham o'rni katta ekani, farzandlarimizga milliy tarbiya kerakligi haqida javoblar oldik. So'rovnoma savollari quyidagilardan iborat: so'ronomamizning natijasi 1-rasmda keltirilgan.

N	Savollar	Ha	Yo'q	Bilm ayman
1	Farzandingiz ko'proq sizga(otasiga) taqlid qiladimi?	60%	10%	30%
2	Farzandingizni maktabgacha ta'lim tashkilotiga ko'proq o'zingiz olib kelasizmi?	50%	50%	0%
3	Qiz farzandni tarbiyalashda ona o'rnak bo'lishi kerakmi?	100%	0%	0%
4	Oilangizda farzand tarbiyasi bilan turmush o'rtog'ingiz ham shug'ullanadimi?	50%	30%	20%
5	Farzandingiz tarbiyalashda unga tarbiyaviy ahamiyatga ega kitoblar o'qib berasmi?	20%	80%	0%
6	Oila tarbiyasida onaning be e'tiborligi oila muhitini qiyinlashtiradimi?	50%	0%	50%
7	Farzandlarmiz milliyligimiz, milliy tarbiya olishi uchun mttida sharoitlar qanday deb o'ylaysiz?	0%	70%	30%
8	Milliyligimiz milliy qadriyatlarimiz haqida farzandingizga so'zlab berasiz?	20%	80%	0%
9	Milliy tarbiya o'zi bola uchun kerakmi?	40%	20%	40%

¹²<https://xn--e1aaancaqclcc7aew1d7d.xn--80adxhks/articles/rol-materi-v-vospitanii-rebenka/>

1	Milliy tarbiyani shakllantirishda milliy qo'g'irchoqlardan foydalanasizmi?	10%	10%	80%
---	--	-----	-----	-----

Qiz oiladagi xulq-atvorning xususiyatlarini, kundalik vaziyatlarga, mehnatga bo'lgan munosabatini eslaydi va o'z hayotida xuddi shunday narsalarni gavdalantirishga intiladi.

O'tkazgan metodlarimiz natijasiga ko'ra farzand tarbiyasida ota-onaning o'zni beqiyosligi aniqlandi, chunki ular bolaning hissiy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishining asosiy me'morlari bo'lib xizmat qiladi. Onalar qiz bolani tarbiyalashda ko'p qirrali mas'uliyat va kelajagini shakllantirishga qanday ta'sir ko'rsatishida roli va ahamiyati aniqladik. Buni bir qancha metodikalarda ko'rib chiqamiz.

7 yoshgacha bo'lgan qiz bolalar miliy tarbiyasini shakllantirishda onalarni shaxsiy namuna qilib olish va tushuntirish, suhbat, ishontirish, talab, nazorat, birga mashq qilish, mukofot kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Oilaviy tarbiya hissiy shaxsiy xususiyatlarga egadir. Onaning bolaga, bolaning onaga bo'lgan cheksiz sevgisiga asoslanadi. Onalarning asosiy vazifalaridan biri hissiy qo'llab-quvvatlash va tarbiyalashdir. Bola tug'ilgan paytdan boshlab, ular xavfsizlik va sevgi hissi uchun ota-onasiga tayanadilar. Issiq va qo'llab-quvvatlovchi uy muhiti bolaning o'zini o'zi qadrlashi va hissiy barqarorligini oshirishga yordam beradi. Shuning uchun biz misol tariqasida "Alla"ni tanlab oldik. Ona alla aytish jarayoni farzandlariga his-tuyg'ulari bilan birgalikda milliy tarbiyani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, keyinchalik hayotda sog'lom shaxslararo munosabatlar uchun asos yaratadi.

Biz tadqiqotimizda qo'llagan metodlarizga ko'ra milliy tarbiyada onaning rolini shakllantirish uchun quyidagi usullardan foydalandik:

1. *"Alla"*
2. *"ertak terapiya"*
3. *"qo'l mehnati"*

"Alla"- Tadqiqotchilarning aniqlashicha, alla bola ruhiyati, salomatligiga va bardam-baquvvat o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatarkan. Ona va bolani ko'rinmas rishta bilan bog'lab, ona organizmi tiklanishiga ham katta yordam berar ekan.¹³

Alla aytay tong otguncha,
 Uyqu kelmas kun botguncha,
 Nuri diydami, alla,
 Qo'zichog'im, alla.

¹³ <https://xs.uz/uz/post/alla-ozlikni-anglash-sar>

Alla, alla, alladan-ay,
Kokillari tillodan-ay.
O‘qib kelgan mulldan-ay,
Alla, qo‘zim, alla.
Alla, qo‘zim, ol, qo‘zim,
Olmalari na qo‘zim.
Anjirlari bo‘l qo‘zim,
Alla, bo‘lam, alla.
“ertak terapiyasi”-

“Qo‘l mehnat”- Qo‘l mehnati, shuningdek, chinakam bolalikni ko‘rsatuvchi qo‘g‘irchoqlar har bir oila farzandi uchun zarur deb o‘ylaymiz. Oilada farzand uchun milliylik aks etgan qo‘g‘irchoqlar uning kelajakdagi o‘ylari va orzularini amalga oshishiga xizmat qiladi. Shuning uchun milliy qo‘g‘irchoqni uy sharoitida ona bilan birgalikda bolaning qo‘g‘irchoq yasashi bolada hissiy rivojlanishga va milliyligimizga muhabbati oshishiga ta’sir qiladi.

“Zebo qizaloq” ko‘rik tanlovi

7 yoshgacha bo‘lgan qiz bolaning yuksak tarbiyasida oyinlarni qo‘llashda turli xil metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahar №12-sonli DMTT da 5 nafar qiz bolalar o‘rtasida “Zebo qizaloq” tanlovini o‘tkazdik. Bu ko‘rik tanlovimizda milliy qadriyatlarimizni tushuntirish, biz aziz bo‘lgan nonimizni yasash, miliy qo‘g‘irchog‘imizni bezatish (ya’ni bunda har xil millatlarning milliy liboslari bilan bezatishlari kerak bo‘ladi.) Bunda qiz bolalarimiz uchun hayot ko‘nikmalari paydo bo‘ladi. Bunda qizaloqlarimiz uchun turli xil naminatsiyalar beriladi.

“Ertak terapiya” - bu ta’lim, xulq-atvor ni to‘g‘irlash, psixologik og‘ishlarining oldini olish, psixologik va psxo terapevtik yordam va boshqa sohalaridagi muammolarni ha qilish uchun ertakdan foydalanadigan psixologiya usuli. Bu usul yordamida bolaning ona va bola munosabatini yaxshilash, onaga ko‘maklashish, onani qadrlash, ona va qiz munosabatini yaxshilash maqsadida qiz bolalarimizga barchamizga tanish bo‘lgan “Zumrad va Qimmat” ertagimizni misol qilib aytib o‘tdik.


NATIJALAR VA MUHOKAMA

7 yoshgacha bo‘lgan qiz bolalar yuksak tarbiyasining milliy poydevorida onaning roli mavzusida maktabgacha ta’lim tashkilotida olib borilgan tadqiqotimizda qo‘llanilgan so‘rovnoma metodlari orqali natijasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Tadqiqotimiz natijasi shuni ko‘rsatadiki qiz bola tarbiyasi uchun milliyligimiz, milliy tarbiyamiz, milliy tarbiyani shakllantirishda milliy

qo'g'irchoqlarimizni o'rni muhim ekanligi haqida onalar bilan so'rovnoma o'tkazishda 10%onalar foydalanar ekan. Qolgan onalar kamdan-kam hollarda milliy qo'g'irchoqlardan foydalanishar ekan.

1-rasm



Bizning intervyu metodimiz quyidagi diagrammada keltirilgan:

“Qizlarini tarbiyalashda qaysi ota-ona asosiy rol o‘ynaydi?” degan savolga javob quyidagicha:

3-rasm



Oilada ota va onaning roli muhim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ona bolalar uchun hayotning eng muhim va mas'ul tomonlaridan biridir. 7 yoshgacha bo'lgan qiz bolalar uchun onaning roli juda katta ahamiyatga ega. Ona bolalarining hayoti boyicha ota-onalarining munosabatlari, ularning psixologik tarbiyalari, ta'lim-tarbiyalari va ijtimoiy integratsiyasi onaning rolini ko'rsatadi. Onalar o'zlarini bolalarga bag'ishlaydilar va ularning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadilar. Bu davrda ona bolani himoya qilishi, uning xatti-harakatlari bilan aloqada bo'lishi, ta'lim-tarbiya berishi, sog'lom ovqat tayyorlashi, tibbiy yordam ko'rsatishi kabi vazifalarni bajaradi.

Bolalarning yoshida onaning roli hayotiy ko'milganliklarini shakllantiradi va ularni kelajakda mustaqil shaxslar sifatida tayyorlaydi. Onaning sevgi, qo'llab-quvvatlash va rejalashtirish kuchi bolalarga o'zlarini rivojlantirishda yordam beradi.

7 yoshgacha bo'lgan bolalar talim tarbiyasi juda muhimdir, chunki bu yoshlar inson shaxsiyatining rivojlanishi uchun kritik bosqichlardan birini tashkil etadi. Bu davrda bolalar o'zlarini jismonan va ma'naviy ravishda rivojlantirishadi. 7 yoshgacha bo'lgan bolalar talim tarbiyasi quyidagi asosiy xususiyatlarga ega bo'ladi: ovqatlanish, jismoniy rivojlanish, sport mashg'ulotlari, ota-onalar muhiti, sog'lig'i, psixologik qo'llash, bilimni oshirish shular bola shaxsiyatining asosiy xususiyatlaridir.

Qiz bola 7 yoshida muhim kognitiv, ijtimoiy- hissiy rivojlanish bosqichida bo'ladi. 7-yoshli qiz farzand tarbiyaashda ota-onalar bir nechta jihatlariga ham e'tiborli bo'lishlari kerak. 7 yoshli qizni tarbiyalash mustaqillikni rivojlantirish, chegaralarni belgilash, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, hissiy qo'llab-quvvatlash, o'rganishni rag'batlantirish, jismoniy salomatlikni saqlash va samarali muloqot kanallarini o'rnatish kabi turli jihatlarni muvozanatlashni o'z ichiga oladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, qizlar millat ko'zgusi, kelajak avlodni barkamol va etuk shaxs bo'lib shakllanishida otalarning rolini oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki ota-onalarning oqilona ta'lim-tarbiyasi orqali farzanlarda o'ziga ishonch va mustaxkam iroda shakllanadi.

TAKLIFLAR

1. MTTda "Mening onam" nomli rasmlar tanlovini tashkil etish;
2. MTTda "Zebo qizaloq" ko'rik tanlovini tashkil etish, unda bir qancha nominatsiyalar beriladi bu orqali qizlarda ilk ko'nikmalar shakllanadi;
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotida miliy o'yinchoqlarni ko'proq bezatish unda qiz bola va ona, ayol obrazi shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. T.: "Sharq". 2020.- 688 b.
2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. T.: «Cho'lpon», 2019.- 144 b.
3. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. T.: "Sharq". 2020.- 688 b.
4. U.Kaykovus. Qobusnoma.T.: "O'qituvchi".2006.-174 b.
5. Akramova F.A. Bilolova Z.B. Jovliyev I.S. Oila ensiklopediyasi.T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". 2019.-237 b.
6. Андреева Т.В. Семейная психология. – СПб.: Речь, 2004. - 244 с
7. Azimaxon Kamolova osh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. "Science and Education" Scientific Journal / December 2022 / Volume 3 Issue 12. 590-592 betlar
8. Niyozmetova R. XX asr o'zbek adabiyotini o'qitish mazmunini belgilash masalalari. – T.: TDPU, 2000. – 105 b.
9. Niyozmetova R. Uzlaksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyoti o'rganish metodikasi. – T.: Fan. 2007. – 215 b.
10. Nishonova S. SHarq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotidabarkamol inson tarbiyasi. Ped. fan. dok. diss... – T.: 1988. – 289 b.
11. Оконь В. Основы проблемного обучения. – М.: Просвещение, 1998. – S. 87-98.
12. Ochil Safo. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari: (o'zbekiston Respublikasi Prezidenti, akademik I.A.Karimov asarlarimisolidi). 2 – to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri. o'qituvchi. – T.: 1997. – 256 b.